

**O,,ZBEKISTON DAVLAT SAN"AT VA MADANIYAT INSTITUTI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI**  
**PhD.11/2025.27.12.San.02.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**  

---

**O,,ZBEKISTON DAVLAT SAN"AT VA MADANIYAT INSTITUTI**

**FAZLIYEVA ZEBO KAMARBEKOVNA**

**O,,ZBEK XALQ RAQSI: AN"ANA VA ZAMONAVIYLIK**

**17.00.01 – Teatr san"ati**

**SAN"ATSHUNOSLIK FANLARI BO,,YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)**  
**DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2026**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Содержание автореферата диссертации доктора философии (PhD)**

**Contents of abstract of the doctor of Philosophy (PhD) dissertation**

**Fazliyeva Zebo Kamarbekovna**

O'zbek xalq raqsi: an'ana va zamonaviylik ..... 3

**Фазлиева Зебо Камарбековна**

Узбекский народный танец: традиции и современность ..... 23

**Fazliyeva Zebo Kamarbekovna**

Uzbek folk dance: tradition and modernity ..... 45

**E'lon qilingan ishlar ro'yxati**

Список опубликованных работ

List of published works ..... 50

**O, ZBEKISTON DAVLAT SANʼAT VA MADANIYAT INSTITUTI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI**  
**PhD.11/2025.27.12.San.02.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**O, ZBEKISTON DAVLAT SANʼAT VA MADANIYAT INSTITUTI**

**FAZLIYEVA ZEBO KAMARBEKOVNA**

**O, ZBEK XALQ RAQSI: ANʼANA VA ZAMONAVIYLIK**

**17.00.01 – Teatr sanʼati**

**SANʼATSHUNOSLIK FANLARI BO, YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)**  
**DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2026**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.4.PhD/San159 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (rezy ume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (dsmi.uz) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Tulyaxodjayeva Muxabbat Turabovna**  
san'atshunoslik fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**To'ychiyeva Sayyora Suyarqulovna**  
falsafa fanlari doktori, professor

**Tashkenbayev Pulat Irkinovich**  
san'atshunoslik fanlari nomzodi, dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Madaniyatshunoslik va nomoddiy madaniy meros ilmiy-tadqiqot instituti**

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti huzuridagi ilmiy daraja beruvchi PhD.11/2025.27.12.San.02.01 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil 15-iyul soat 12:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100164, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, Yalang'och dahasi, 127-"A"uy. Tel.:(+99871)230-28-02; faks:(+99871) 230-28-15; e-mail: uzdsmi@madaniyat.uz).

Dissertatsiya bilan O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (48 raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100164 Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, Yalang'och dahasi, 127-"A" uy. Tel. (+99871) 230-28-02; faks:(+99871) 230-28-15;

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil 30-iyun kuni tarqatildi.

(2026-yil 30-iyundagi 15-raqamli reyestr bayonnomasi).



**B.A.Shodiyev**

Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy Kengash raisi,  
san'atshunoslik fanlari doktori, dotsent

**J.A.Mamatqosimov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
kotibi, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa  
doktori (PhD), professor

**A.A.Umarov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
qoshidagi ilmiy seminar raisi, sotsologiya  
fanlari doktori, professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda shiddat bilan kechayotgan informatsion va transformatsion jarayonlar barcha sohalarga, jumladan sanʼat sohasiga ham sezilarli taʼsir koʻrsatmoqda. Xalq raqslari va milliy raqs sanʼati oʻziga xos qadriyatlarini saqlab, millatlararo madaniy aloqalarni mustahkamlash hamda ijodiy tafakkurni rivojlantirish jadallashmoqda. Oʻzbek xalq raqslari va milliy raqs maktablarining tarixiy ildizlarini, shakllanish bosqichlarini va zamonaviy talqinlarini hamda raqs turlari oʻrtasida kechayotgan sintezlashuv jarayonlari ilmiy asosda tadqiq etish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Jahon sanʼatshunoslik ilmda xalq raqslari tarixiga bagʻishlangan, ularning yuzaga kelish va rivojlanish aspektlarini qamrab olgan tadqiqotlarga alohida eʼtibor qaratilmoqda. Soʻnggi vaqtlar ushbu yoʻnalishda olib borilayotgan ilmiy ishlarda asosiy eʼtibor xalq raqslarida millatning etnik-madaniy qiyofasini ifodalovchi badiiy unsurlar, xalq raqslarining spetsifik ijro imkonoyatlari hamda raqs xilma-xilligining yoʻqolib ketish xavfi kuzatilmoqda. Oʻzbek xalq anʼanaviy raqslarining bugungi holati, mavjud muammolarini tadqiq etishga va soha istiqboliga yoʻnaltirilgan ilmiy xulosalar chiqarishga zarurat yuzaga kelmoqda.

Yangi Oʻzbekistonning maʼnaviy taraqqiyotida raqs sanʼatining milliy va zamonaviy ahamiyati madaniy jihatdan yanada rivojlanib, oʻzbek xoreografiya sanʼati namoyandalari xalq raqslarini avlodlarga bus-butun yetkazish va ularning asl badiiy mohiyatini asrash borasida muhim ishlar amalga oshirilmoqda. –Raqs sanʼatini bugungi kunda jamiyatimiz hayotining barcha sohalarida roʻy berayotgan tub oʻzgarishlarga mos holda rivojlantirish, milliy raqsning turli yoʻnalish va namunalarini, mamlakatimizning turli mintaqalarida shakllangan mumtoz raqs maktablarini qayta tiklash va kelajak avlodlarga bezavol yetkazish hamda bu boradagi taʼlim-tarbiya, targʻibot ishlarini kuchaytirishni taqozo etmoqda”<sup>1</sup>. Shu nuqtai nazardan xalq raqslarining shakllanish va taraqqiyot bosqichlari, baletmeyster va xoreografiya sanʼati sohasida toʻplagan tajribalari, anʼanalari, Mustaqillik davrida paydo boʻlgan ijodiy tendensiyalarni oʻzlashtirish, raqs maktablarining oʻziga xos jihatlari va ijro uslublarini tadqiq etish ustuvorlik kasb etmoqda.

Oʻzbekiston Respublikasining 2021-yil 20-yanvardagi OʻRQ–668-son –Madaniy faoliyat va madaniyat tashkilotlari toʻgʻrisida”gi Qonuni, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 26-maydagi PF-6000-son –Madaniyat va sanʼat sohasining jamiyat hayotidagi oʻrni va taʼsirini yanada oshirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”, 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son –Oʻzbekiston – 2030 strategiyasi toʻgʻrisida”gi farmonlari, 2018-yil 28-noyabrdagi PQ-4038-son –Oʻzbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash toʻgʻrisida”, 2020-yil 4-fevraldagi PQ-4584-sonli –Milliy raqs sanʼatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”, 2020-yil 4-fevraldagi PQ-4585-son –Raqs sanʼati sohasida yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”, 2020-yil

---

<sup>1</sup> Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 4-fevraldagi PQ-4584-son –Milliy raqs sanʼatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi qarori. Qonun hujjatlari maʼlumotlari milliy bazasi, 05.02.2020-y., 07/20/4584/0123-son.

28-sentyabrdagi PQ-4843-son „Ezgi“ xalqaro raqs festivalini tashkil etish va oʻtkazish toʻgʻrisida”gi qarorlari hamda shu sohaga oid boshqa meʼyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yoʻnalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning I. „Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, maʼnaviy-maʼrifiy rivojlantirishda innovatsion gʻoyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yoʻllari“ ustuvor yoʻnalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning oʻrganilganlik darajasi.** Xorij tadqiqotlarida xoreografiya sanʼati tarixi va nazariyasi, shakllanish jarayonlari va rivojlanish tendensiyalari bir qancha sanʼatshunos, teatrshunoslar tomonidan atroflicha oʻrganilgan. Xususan, V.Baglay, D.Bogatkova, T.S.Vizgo, A.Klimov, A.Lopuxov, S.P.Tolstov, T.S.Tkachenko<sup>2</sup> kabi olimlar raqs sanʼatining badiiy-uslubiy xususiyatlari va janriy jihatlarini alohida tadqiq etgan.

Oʻzbekistonda xoreografiya sanʼati dastlab teatrshunos olimlarning ilmiy izlanishlari, monografiya va oʻquv qoʻllanmalarida yoritildi. M.Rahmonov, M.Qodirov, M.Toʻlaxoʻjayeva, P.Tashkenbayev<sup>3</sup> singari teatrshunoslar raqs sanʼatining tarixiy aspektlariga eʼtibor qaratdi. Jumladan, oʻzbek raqs sanʼatining yuzaga kelishi va shakllanishi masalalari bilan birga, sohada ilmiy kadrlar tayyorlash muammolariga ham urgʻu berilgan. Shuningdek, I.Radjabov, I.Gʻaniyeva, O.Safarov, O.Ibragimov, Y.Y.Romanovskaya<sup>4</sup> kabi olimlarning musiqashunoslikka doir ilmiy ishlarida raqslar musiqa kesimida oʻrganilgan. Ayniqsa, N.Turgʻunova tadqiqoti<sup>5</sup> xotin-qizlar davrasida ijro qilingan yalla sanʼatidagi harakatlarning milliy raqslar rivojida muhim oʻrin tutishini ilmiy asoslagani bilan qimmatlidir. Xoreografiyada raqs usullari, oʻziga xosligi, kompozitsion tuzilishdagi ahamiyati toʻgʻrisida xoreograf-pedagog R.Karimova<sup>6</sup> tomonidan ishlab chiqilgan oʻquv qoʻllanmalari professional

<sup>2</sup> Баглай В. Этническая хореография народов мира. – Ростов на Дону: Феникс, 2007. – 405 с.; Богаткова Д. Танцы разных народов. – Москва: Изд-во ЦКВЛКСИ «Молодая гвардия», 1958. – 222 с.; Вызго Т. Развитие музыкального искусства Узбекистана и его связи с русской музыкой. – Москва: Музыка, 1970. – 320 с.; Климов А. Основы русского народного танца. – Москва: Искусство. 1981. – 270 с.; Климов А. Русский народный танец. Выпуск 1. Север России. – Москва, 1996. – 44 с.; Лопухов А. Основы характерного танца. – Санкт Петербург-Краснодар-Москва: Изд-во «Лань», 2010. – 344 с.; Tolstov S. Qadimgi Xorazm madaniyatini izlab. – Toshkent: Fan, 1964. – 452 b.; Ткаченко Т. Народный танец. – Москва: Искусство. 1954. – 683 с.

<sup>3</sup> Rahmonov M. Oʻzbek teatri tarixi (XVIII asrdan XX asr avvaligacha oʻzbek teatr madaniyatining taraqqiyot yoʻllari). – Toshkent: Fan, 1968. – 430 b.; Rahmonov M. Oʻzbek teatri (qadimiy zamonlardan XVIII asrga qadar). – Toshkent: Fan, 1975. – 452 b.; Qodirov M. Oʻzbek teatri anʼanalari. – Toshkent: Gʻafur Gʻulom nomidagi Adabiyot va sanʼat nashriyoti, 1976. – 420 b.; Туляходжаева М. Особенности хореографического текста двух балетов о любви // Туркология. – № 5 (91). ГРИНТИ 11.13.44. 2018. – Стр. 114-121.; Ташкенбаев П. Традиции и инновации в сфере хореографического образования // Oriental Art and Culture, Vol.3, Issue 3, 2022. – С. 317-312.

<sup>4</sup> Раджабов И. О музыке Самарканда. Из истории искусства великого города. – Ташкент: Издательство литературы и искусства имени Гафура Гуляма, 1972.; Gʻaniyeva I. Oʻzbek musiqasida „Fanavor“ (tarixiy va nazariy muammolar kesimida): San. fan. nom. dis. – Toshkent: OʻzRFA SI, 2008. – 148 b.; Safarov O., Atoyev O., Toʻgayev F. „Buxorcha“ va „Mavrigi“ taronalari. – Toshkent: Fan, 2005. – 277 b.; Ибрагимов О. Фергано-Ташкентские макомы. – Ташкент: Media Land, 2006. – 104 с.

<sup>5</sup> Turgʻunova N. Fargʻna vodiysi yallachilik sanʼati. – Namangan: Namangan, 2016. – 364 b.

<sup>6</sup> Каримова Р. Ферганский танец. – Ташкент: Издательство литературы и искусства имени Гафура Гуляма, 1973. – 224 с.; Каримова Р. Бухарский танец. – Ташкент: Издательство литературы и искусства имени Гафура Гуляма, 1977. – 132 с.; Каримова Р. Хорезмский танец. – Ташкент: Издательство литературы и искусства имени Гафура Гуляма, 1975. – 114 с.

yondashuvga asoslangani bilan bugunga qadar ta'lim amaliyotida keng qo'llanib kelinmoqda. O'z. Muhammedova, N. Abraykulova, E. Saitova, Sh. Jalilova X. Xursandov, Sh. Qurbonova kabi xoreograf-pedagoglar, P. Toshkenboyev, L. Nasibulina, M. Muhammedova<sup>7</sup> kabi nazariyotchi pedagoglarning o'quv qo'llanmalari va darslik kitoblarida ham raqs san'atining turli dolzarb masalalari olib chiqilgan.

San'atshunos mutaxassislar orasida L. Avdeyeva, T. Litvinova, M. Israilov, G. Xamroyeva, G. Usmanova, Sh. Jalilova<sup>8</sup> singari kam sonli olimlar tomonidan xoreografiya san'ati tadqiq etilgan bo'lsa-da, mazkur izlanishlar ushbu dissertatsiya uchun fundamental asos bo'lib xizmat qildi. Mazkur tadqiqotlarda joriy ilmiy ish mavzusiga oid bo'lgan hududiy raqs madaniyatidagi ustuvor an'analar, qadriyatlar, tarkibiy komponentlar, ularning jamiyat ma'naviy-axloqiy qarashlariga ta'siri o'rganilgan. Ushbu izlanishlarga tayangan holda dissertatsiyada o'zbek milliy raqsi an'analar va zamonaviylik kontekstida ilk bor alohida mavzu sifatida olib chiqilmoqda va atroflicha tahlil etilgan.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya ishi O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Yangi O'zbekistonda milliy madaniyatni rivojlantirish strategiyasi: an'anaviy qadriyatlar va zamonaviy talablar uyg'unligida madaniyat va san'at sohasi mutaxassislarini tayyorlashning nazariy-konseptual asoslari" mavzusidagi ilmiy yo'nalish doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** o'zbek xalq raqsining kelib chiqishi va rivojlanishida an'anaviylik hamda zamonaviylikning o'ziga xos xususyatlarini ochib berishdan iborat.

#### **Tadqiqotning vazifalari:**

o'zbek an'anaviy xalq raqsi va xalq o'yinlarining bir-biridan farqlanishi, o'zaro o'xshash, va alohida qirralarini aniqlash, tizimli o'rganish;

an'anaviy xoreografiyaning turlari va janrlarini belgilash;

o'zbek xalq raqsi an'alarining Farg'ona, Buxoro, Xorazm raqs maktablaridagi zamonaviy talqinlarni aniqlash

---

<sup>7</sup> Muxamedova O. N. O'zbek raqsini sahnalashtirish amaliyoti. – Toshkent: Navro'z, 2020. – 480 b.; Abraykulova N. Raqs. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Turon-Iqbol, 2018. – 156 b.; Saitova E. Y., Abraykulova N. E. Xoreografiya va raqs san'ati asoslari. Darslik. – Toshkent: Navro'z, 2015. – 144 b.; Jalilova Sh. O'zbek raqsini o'qitish uslubiyoti. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Navro'z, 2020. – 104 b.; Xursandov H., Qurbonova Sh. Surxon raqs maktabi. – Toshkent: Nur sehri oshiyoni, 2010. – 173 b.; Tashkenbayev P. Xoreografiya bo'yicha san'atshunoslik mutaxassisligi. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Navro'z, 2018. – 136 b.; Насибулина Л. История узбекского хореографического искусства. – Ташкент: Навруз, 2019. – 266 с.; Muxamedova M. Jahon va o'zbek xoreografiyasi san'ati. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Fan ziyosi, 2021. – 196 b.

<sup>8</sup> Авдеева Л. Традиции и новаторство в узбекской хореографии: Автореф. дис. ... кан. искусств. – Ташкент, 1965. – 104 с.; Литвинова Т. Формирование каракалпакского народно-сценического танца. Дис. ... кан. наук. искус. – Ташкент, 1987. – 140 с.; Исраилов М. Уйгурский танец на территории Средней Азии и Казахстана: Дис. кан. наук. искус. – Ташкент, 1991. – 155 с.; Хамроева Г. Общие законы сценической хореографии и национальный образ танца: на примере анализа программы ансамбля «Бахор»: Дис. ... кан. наук. искус. – Ташкент, 1986. – 164 с.; Usmanova G. Mustaqillik davri o'zbek raqs san'atining rivojlanish tamoyillari: Avtoref. san. fan. fal. dok. – Toshkent, 2022. – 51 b.; Жалилова Ш. Ш. Художественные принципы и приёмы узбекского сценического танца: Дис. канд. наук. искус. – Ташкент, 2024. – 165 с.

xalq raqsi ansambllari faoliyatidagi izlanishlar xalq raqsining yangi shakllari va turlariga oid izlanishlarni folklor-etnografik ansambllari misolida tadqiq etish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida o'zbek xalq raqslarining asosiy yo'nalishlari etib belgilangan.

**Tadqiqotning predmetini** hududiy maktablar, xalq raqs ansambllari repertuarlaridan o'rin olgan xalq raqsleri tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqotda nazariy-metodologik, tarixiy-semantik, tizimli, qiyosiy tahlil, suhbat, kuzatuv, kompleks yondashuv kabi usullardan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

o'zbek raqsi an'analari milliy xoreografik maktablarning: Farg'ona – lirik-nafis harakatlari va mayin plastikasi, Buxoro – tantanaviylik va vazmin ijro uslubi, Xorazm – jo'shqin ritmika va dinamik harakatlari, Surxon – folklor-etnografik xarakterdagi ekspressiv plastikasi, Qashqadaryo – marosimiy-ramziy harakat tizimi o'ziga xos uslubiy belgilari, kompozision qurilishi, ritm-plastik xususiyatlari, sahnaviy tamoyillari hamda ijro manerasi tizimi, harakat dinamikasi, qo'l plastikasi va ifodalilik darajasi aniqlangan;

o'zbek xalq raqsida an'anaviylik va zamonaviylikning o'zaro uyg'unlashuv modeli ishlab chiqilib, milliy raqs merosining semantik mazmundorlik, milliy harakat leksikasi, etnomadaniy ifodaviylik, obrazli harakat tili, milliy plastik ifoda, etnoxoreografik belgilar kabi xususiyatlarini saqlagan holda sahnaviy talqin mexanizmlari yangilangani, milliy plastika, zamonaviy xoreografik echimlar integratsiyasining badiiy-konseptual birlikni ta'minlashga qaratilgan, badiiy transformatsiya va kompozision uyg'unlikka asoslangan asosiy tamoyillari, uslubiy mutanosiblik, ritm-plastik muvofiqlik, dramaturgik yaxlitlik vujudga kelganligi asoslangan;

ommaviy xoreografik kompozisiyalarda an'anaviy raqs elementlaridan foydalanishning dramaturgik qonuniyatlarining sahnaviy samaradorlikka ta'sir etuvchi badiiy-estetik, plastik ifoda, milliy uslub, musiqiy uyg'unlik, kompozision echim va ijrochilik mahorati bilan bog'liq semantik ta'sirchanlik, milliy-madaniy reprezentatsiya va badiiy kommunikatsiyani ta'minlovchi omillari dalillangan;

raqs san'atining obraz yaratish jarayonida an'anaviy harakat va ishoralarning semiotik (ramziy) xususiyatlari mazmunni ifodalashda ramziy ma'no qatlamlarini shakllantirishi va madaniy kodlarni uzatishi sababli badiiy-emotsional ta'sirchanligi, milliy tafakkurni aks ettirishi, dramatik g'oyani ochib berishi hamda tomoshabinning estetik idrokiga ta'siri isbotlangan.

**Tadqiqotning amaliy natijasi** quyidagilardan iborat:

dissertatsiya materiallari asosida –"O'zbek raqsini o'rganish uslubiyoti (Farg'ona raqs maktabi asosida)" nomli o'quv qo'llanma nashr etilgan;

xoreografiya mutaxassisligi bo'yicha oliy va o'rta-maxsus ta'lim muassasalarida o'tiladigan –"O'zbek raqsini o'rganish uslubiyoti", –"O'zbek raqsini o'qitish uslubiyoti", –"Raqs", –"O'zbek xoreografiya namunalari", –"Baletmeysterlik san'ati" kabi fanlarga oid darslik va o'quv qo'llanmalarni yaratish, raqs san'atiga bag'ishlangan tele-radio ko'rsatuv va eshittirishlar tayyorlash uchun muhim manba bo'lib xizmat qilishi isbotlangan;



dissertatsiya ma'lumotlaridan 2021-2023-yillar mobaynida O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi –Madaniyat va ma'rifat" telekanalining –Bormisiz, omonmisiz" ko'rsatuvi ssenariylarida foydalanilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** olingan xulosalarning tarixiy-semantik, tizimli, qiyosiy tahlil, suhbat, kuzatuv, kompleks yondashuv usullari bilan asoslangani, raqs san'atidagi yangi tendensiyalarni aniqlashda an'analar va novatorlik izlanishlariga tayanilgani, ilmiy konferensiyalarda aprobat-siyadan o'tganligi, mavzu bo'yicha seminarlarda ishtirok etilgani bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati chiqarilgan xulosalar va nazariy fikrlar orqali raqs san'atiga oid mavjud izlanishlarni va ilmiy ma'lumotlarni to'ldiradi, mavzu bo'yicha amalga oshiriladigan keyingi tadqiqotlar uchun asos bo'ladi, raqs san'atiga oid darsliklar yaratishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati xoreografiya san'ati tarixi va nazariyasi bo'yicha tayyorlanadigan ilmiy nashrlar uchun muhim manba bo'ladi, kadrlar tayyorlash jarayonida raqs san'ati haqida nazariy ma'lumot beruvchi qo'llanma vazifasini bajaradi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** O'zbek xalq raqsi: an'anaviylik va zamonaviylik tadqiqoti bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

o'zbek raqsi an'alari milliy xoreografik maktablarning: Farg'ona – lirik-nafis harakatlari va mayin plastikasi, Buxoro – tantanaviylik va vazmin ijro uslubi, Xorazm – jo'shqin ritmika va dinamik harakatlari, Surxon – folklor-etnografik xarakterdagi ekspressiv plastikasi, Qashqadaryo – marosimiy-ramziy harakat tizimi o'ziga xos uslubiy belgilari, kompozision qurilishi, ritm-plastik xususiyatlari, sahnaviy tamoyillari hamda ijro manerasi tizimi, harakat dinamikasi, qo'l plastikasi va ifodalilik darajasi aniqlangan xulosa va takliflar –O'zbek raqsini o'rganish uslubiyoti" nomli o'quv qo'llanma mazmuniga singdirilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2026-yil 29-yanvardagi 01/01-01-48-son ma'lumotnomasi). Natijada, yangi davr o'zbek xoreografiyasi rivoji, asosiy xususiyatlari, baletmeyster va raqs ansambllari, ulardagi ijrochilar faoliyati yaxlit o'rganilib, soha vakillari uchun qimmatli manba bo'lib xizmat qilgan;

o'zbek xalq raqsida an'anaviylik va zamonaviylikning o'zaro uyg'unlashuv modeli ishlab chiqilib, milliy raqs merosining semantik mazmundorlik, milliy harakat leksikasi, etnomadaniy ifodaviylik, obrazli harakat tili, milliy plastik ifoda, etnoxoreografik belgilar kabi xususiyatlarini saqlagan holda sahnaviy talqin mexanizmlari yangilangani, milliy plastika, zamonaviy xoreografik echimlar integratsiyasining badiiy-konseptual birlikni ta'minlashga qaratilgan, badiiy transformatsiya va kompozision uyg'unlikka asoslangan asosiy tamoyillari, uslubiy mutanosiblik, ritm-plastik muvofiqlik, dramaturgik yaxlitlik vujudga kelganligi asoslangan xulosa va takliflardan O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi tizimidagi raqs jamoalari va ta'lim muassasalari faoliyatida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligining 2026-yil 29-yanvardagi 02-11-20-312-son ma'lumotnomasi). Natijada, raqs jamoalari va baletmeysterlar faoliyatida an'anaviy harakatlar hamda zamonaviy xoreografik uslublar sintezini

to'g'ri shakllantirishga, repertuarlarning g'oyaviy-badiiy saviyasini oshirishga va milliy raqs merosimizni jahon sahnalarida munosib targ'ib etishga xizmat qilgan;

ommaviy xoreografik kompozitsiyalarda an'anaviy raqs elementlaridan foydalanishning dramaturgik qonuniyatlarining sahnaviy samaradorlikka ta'sir etuvchi badiiy-estetik, plastik ifoda, milliy uslub, musiqiy uyg'unlik, kompozitsion echim va ijrochilik mahorati bilan bog'liq semantik ta'sirchanlik, milliy-madaniy representatsiya va badiiy kommunikatsiyani ta'minlovchi omillari dalillangan xulosa va takliflardan O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi "Madaniyat va ma'rifat" telekanalining "Bormisiz omonmisiz" ko'rsatuvlari ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi "Madaniyat va ma'rifat" telekanalining 2024-yil 5-martdagi 01-14/52-son dalolatnomasi). Natijada, respublikamiz sahnalarida yaratilayotgan yangi raqs asarlari va xoreografik kompozitsiyalarni sahnalashtirishda metodik manba sifatida xizmat qilgan;

raqs san'atining obraz yaratish jarayonida an'anaviy harakat va ishoralarning semiotik (ramziy) xususiyatlari mazmunni ifodalashda ramziy ma'no qatlamlarini shakllantirishi va madaniy kodlarni uzatishi sababli badiiy-emotsional ta'sirchanligi, milliy tafakkurni aks ettirishi, dramatik g'oyani ochib berishi hamda tomoshabinning estetik idrokiga ta'siri isbotlangan xulosa va takliflardan O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi tomonidan 2024-2026-yillarda tashkil etilgan madaniy tadbirlarda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligining 2026-yil 29-yanvardagi 02-11-20-312-son ma'lumotnomasi). Natijada, folklor-etnografik ansambllar repertuaridagi raqslarning badiiy-g'oyaviy xususiyatlari va uslublari tahlili asosida ijodiy faoliyati hamda repertuarini yanada rivojlantirishga tizimli amalga oshirish imkoniyati yaratilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro, 2 ta respublika konferensiyasida aprobatyadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot najalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 13 ta ilmiy maqola, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 9 ta, shundan xorijiy jurnallarda 1 ta ilmiy maqola chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 124 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida mavzuning dolzarbligi asoslangan, maqsad va vazifalar belgilangan, Respublika fan va texnologiyalarining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqot predmeti va ob'yekti aniqlangan, muammoning o'rganilganlik darajasi aks ettirilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari ochib berilgan, natijalarning amaliyotga tadbiiq etilganligi bayon etilgan, nashr qilingan ishlar va dissertatsiyaning tarkibiy tuzilishi to'g'risidagi ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "O'zbek xalq raqsining kelib chiqishi va rivojlanishi" deb nomlanib, o'zbek xalq raqsining dastlabki ildizlari va shakllanish

bosqichlari, turli tarixiy davrlardagi rivojlanish xususiyatlari hamda raqs san'atining nazariy asoslari tahlil qilindi. Raqs tarixining har bir davriga xos o'zgarishlar, ularning sabab va oqibatlari ilmiy-nazariy yondashuvda yoritib berildi. Bob uch paragrafdan iborat. Birinchi bobning dastlabki paragrafi **“Hududiy etnomadaniyat va xalq raqsi”** deb nomlanib, unda hududiy etnomadaniy xususiyatlarning raqs plastikasida, harakatlar tizimida, musiqiy ritm va sahnaviy ifodalilikda namoyon bo'lishi ochib beriladi shuningdek, hududiy etnomadaniyatni namoyish etishning eng yorqin va o'ziga xos shakli raqs ekanligi, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy sohalaridagi o'zgarishlarning aks etishi batafsil tahlilga tortilgan. Hududiy etnomadaniyat va xalq raqsi – jamoaviy ijod mahsuli bo'lib, tadqiqotda u xalq tarixi bilan ajralmas ekanligi asoslangan.

Har davrning alohida jihatlari xalq badiiy ijodi hamda raqslarida ko'rinishi Akademik Mamajon Rahmonov tomonidan Avesto ta'limotlari bilan bog'lab izohlangan bo'lsa, mazkur tadqiqotda ularning tarixiga batafsil to'xtalinib, Shimoliy Amerika hindularida –Bizon” raqsi, Indoneziyada –Penchak” (yo'lbars) raqsi, Yakutiya da –Ayi” raqsi, Pomirda –Burgut” raqsi, finlarda –Buqa” raqsi, ruslarda –Juravel” va –Gusachok” raqsi, norvejlarda –Xo'rozlar jangi” raqslari mavjudligi va ularning o'ziga xosligi, ularda donolik va qahramonlik, quvonch va qayg'u, g'alaba va mag'lubiyat, kundalik hayot tarzi, urf-odatlar va baxtli kelajakka bo'lgan ishonch mujassamlashganligi bu esa o'z navbatida san'atning oddiy xalq hayotida muhim o'rin tutganligi o'rganilgan. Natijada, xalq marosimlarida dastlab xorovod va marosim raqslari shakllanganligi, bora-bora xalq raqslari marosim harakatlaridan uzoqlashib, kundalik hayotning yangi xususiyatlarini ifodalovchi mazmun bilan to'ldirilganligi, ov yoki chorvachilik bilan shug'ullangan xalqlar jonivorlarni ko'p kuzatishgani sabab, ularning xatti-harakatlarini o'z raqslarida uyg'unlashtirganligi bir qator olimlarning nazariy manbalariga tayangan holda to'liq tadqiq etilgan. Xususan, A.A.Klimovning –Rus xalq raqsi asoslari” nomli darsligi, N.I.Zaikin, N.A.Zaikinalarning –Rus xalq raqsLARining hududiy o'ziga xosligi” nomli darsligi, G.A.Nastyukov va Y.M.Churko kabi ko'plab olimlarning tadqiqotlarida rus xalq raqsLARiga berilgan ta'riflar o'zbek xalq raqsLARini ham shunday tasniflashga ehtiyoj mavjudligini tasdiqlaydi. Tadqiqotning ushbu paragrafida o'zbek milliy raqsLari va xalq raqsLARining o'ziga xosligi, turlari va farqlari ko'rsatib o'tilgan.

Bobning ikkinchi paragrafi **“XIX asr oxiri va XX asr boshlarida o'zbek xalq raqsining asosiy yo'nalishlari. Hududiy maktablar”** deb nomlangan. Unda bu davrda o'zbek milliy raqsLARini o'rgatishda ustoz-shogirdlik maktabining og'zaki uslubiga asoslangan raqs harakatlari, raqsning amaliy saboqlarini ko'rish va eshitish orqali xotirada to'liq saqlab qolish murakkab bo'lishiga qaramasdan avlodddan avlodga o'tib kelganligi bois, keyinchalik I.Baxta, M.Qoriyoqubovlar raqsning nazariy aspektLARini vujudga keltirildi va R.Karimova tomonidan tizimlashtirildi. Shu kabi sa'y-harakatlar natijasida I.Baxta tomonidan –Katta o'yin” to'plami uchun manbalar yig'ilib, L.Avdeyeva, Z.Afanaseva, R.Karimova ishtirokida nashrga tayyorlangan bo'lib, paragrafda –Katta o'yin”, –Xona bazm” raqsLari tarixi, tuzilishi, ilk ijrochilari, ushbu raqsLar haqida ma'lumotga ega bo'lgan 10 nafar raqs ustasi va madaniyat namoyandalari tadqiq qilindi.

Xususan, *–Katta o‘yin*”, *–Xona bazm*” raqslari o‘zbek xalq raqslarining ilk shakllarini o‘zida mujassamlashtirgan va yakka holda ijro qilinganligi isbotlangan. Jumladan, xalq raqslari borasida Kenjaboy Tursunov ikki avloddan – otasi va bobosidan ma‘lumot olgan 3-avlod raqqosidir. U o‘z talqinidagi *–Katta o‘yin*” raqsining oxirgi 100 yillikda ikki turga – yangi va eskiga ajralganini va ular bir-biridan musiqiy ritmlari bilan farqlanishini ta‘kidlagan. *–Qo‘qonga tegishli –Katta o‘yin*”ni yangi, Toshkentga tegishli *–Katta o‘yin*”ni eski deb hisoblaydi.

Qo‘qonga tegishli *–Katta o‘yin*”da harakatlar yumshoq, sekin, aylanishlar yo‘q va har bir qismning oxiridagina shoh aylanishi borligini, Toshkentga tegishli *–Katta o‘yin*” esa kuchli, tez, aylanishlar va shoh harakatlarning ko‘pligi bilan farqlaydi. Toshkentga tegishli *–Katta o‘yin*” qadimiy bo‘lib, ko‘p usullar unutilgani va hozirda faqat 9 usulni eslashini aytib o‘tadi”<sup>9</sup>. Bular: *–Katta o‘yin*”, *–Gul o‘yin*”, *–Shox*”, *–Sadr*”, *–Samo birinchi*”, *–Aqrabo*”, *–Samo ikkinchi*”, *–Mavruh*”, *–Du-choba* (ikki tayoq)” kabi fikrlarni keltirgan bo‘lsa, Xislat (shoir) esa: *–Hozirda –Katta o‘yin*”ni ayrim mutaxassislar raqslar to‘plami, qismlarga bo‘lingan raqs deb, noto‘g‘ri talqin qilishmoqda. Aslida ushbu raqsning joyini almashtirish, harakat qo‘shish yoki olib tashlash mumkin emas. Bu yaxlit raqs bo‘lib, hech qanday to‘xtalishsiz ijro etilishi kerak.

Xalq raqslari borasida juda ko‘p muhokamalar bo‘lgan bo‘lib, Usta Olim Komilov talqinidagi *–Katta o‘yin*” to‘g‘ri. Yusufjon Qiziq Shakarjonov barcha usul va harakatlarni eslab qolgan, ishonish mumkin bo‘lgan yagona raqs ustasi” degan fikrlarni keltiradi. Sa‘dullayev (raqqos) esa: *–Buxoroning ham o‘z –Katta o‘yin*”i bo‘lgan va u maqom musiqasining 3-qismi (Ufor)ga ijro etilgan. U faqat katta tomoshalarda ijro etilgan” degan xulosalariga keladi.

Bu boradagi baxsli fikrlar Matyusup Xaratov (musiqachi), Shosolixon Shobarot (mallo Shobarot raqqos), Solixon xo‘ja Baratov (raqqos), Yusufjon qiziq Shakarjonov (taniqli qiziqchi, so‘z ustasi, raqqos, usulchi), Usta Olim Komilov (doyrachi)lar tomonidan ham turli manbalarda keltirilgan bo‘lib, paragrafda ularga batafsil to‘xtalangan va tahlilga tortilgan. Natijada, Xalq raqslaridan bizgacha meros bo‘lib yetib kelgan *–Katta o‘yin*” tarkibidan paydo bo‘lgan, ammo *–Xona bazm*”<sup>10</sup> guruhiga kiruvchi raqslar ham bor ekanligi, ular aynan erkaklar tomonidan va har doim ashula hamda cholg‘u ansambl jo‘rligida ijro etilishi, musiqaning tempi, raqs harakatlari va muqomlarga boyligi bilan ajralib turganligi, ushbu raqs guruhi ham, o‘z navbatida, uch guruhga – Farg‘ona, Buxoro, Xorazm hududlarida ijro etilgan xalq raqslariga asoslanganligi tadqiq qilingan.

Jumladan, paragrafda xududiy maktablar uch guruhga bo‘lingan bo‘lib, birinchi guruhga *–Xona bazm*” raqsining *Farg‘ona-Toshkent, Buxoro, Xorazm, hududlariga* kiruvchi raqslar saralangan va hozirda *–Xona bazm*” guruhiga kiruvchi hududiy Farg‘ona xalq raqslaridan *–Bayot*”, *–Dilxiroj*”, *–Qari navo*”, *–Rohat*”, *–Sina-xroj*”lar saqlanib qolganligi, ammo *–Do‘ppi tikish*”, *–Ipak yigirish*”, *–Tantana*” raqslari faqat raqs harakati nomi bo‘lib ijro etilayotganligi, Buxoro xalq raqslaridan *–Zang*”,

<sup>9</sup> Бахта И.Г. Узбекский народный танец «Катта уюн» I, II, III, IV части. – Ташкент: Архив Института искусствознания БЗО № 247/4, 1956. – С.1.

<sup>10</sup> Бахта И.Г. Узбекский народный танец «Катта уюн» I, II, III, IV части. – Ташкент: Архив Института искусствознания БЗО № 247/4, 1956. – С.4.

–Larzon”, –Mavrigi”, Xorazm guruhvidan –Lazgi” saqlanib qolganligi tadqiqotda aks etgan.

Xalq raqsi ijodkorlari izlanishlaridan quyidagilar isbotlandi –Katta o\_yin” – o\_zbek xalq raqsining asosi bo‘lib maydonlarda ijro etiladigan katta shakldagi raqs. –Xona bazm” esa ichkarida yoki kichik davralarda ijro etiladigan xalq raqsidir.

“An‘anaviy xoreografiyaning turlari va janrlari” nomli birinchi bobning uchinchi paragrafida, an‘anaviy xoreografiya xalqning azaliy raqs madaniyati, marosim va urf-odatlar bilan bog‘liq raqs harakatlari tizimini qamrab olishi bilan birgalikda asosiy raqs turlari, janrlari yoritiladi va ularning xususiyatlari misollar bilan tahlil etiladi.

An‘anaviy xoreografiya tushunchasi yuzaga kelgandan so‘ng raqsning boshqa tur va janrlari ham shakllana boshladi. Raqsda ifoda vositalari va turli harakatlar qadim zamonlardan buyon o\_zgarmay kelayotgan xalq an‘analarini aks ettiradi.

An‘anaviy raqs san‘ati bir necha asosiy turlarga bo‘linadi: xalq raqslari, professional raqs, marosimiy raqs, diniy va epik raqs. Xalq raqslari erkin improvizatsiyaga boy bo‘lib, raqqoslar ko‘pincha o\_z ijodiy harakatlarini joyida to‘qib ijro etadilar. Shu bois har bir voqea va elatning xalq raqsi harakatlari va usullari o‘sha yurtning tabiatiga, xalq xarakteriga mos ohang va ritmga ega.

Professional raqs – maxsus tayyorgarlikka ega ijrochilar tomonidan sahna yoki saroylarda ijro etiladigan raqs turlari.

Marosimiy raqs – xalqning turli udum va marosimlarida bajariladigan ramziy harakatlar majmuasidir. Bunday raqslarga asosan hayot sikliga oid marosimlar (tug‘ilish, sunnat to‘yi, nikoh, Navro‘z, hosil bayramlari va hokazo) doyrasida ijro etiladigan o\_yinlar kiradi. Marosimiy raqslarda ko‘pincha ramziy ma‘nolar mujassam: masalan, bahoriy raqslarda yerning uyg‘onishi, hosildorlikni tarannum etuvchi harakatlar aks etgan. Bu raqs qat‘iy sahna ko‘rinishidan yiroq, ko‘proq jamoaviy o\_yinlar shaklida bo‘lib, ishtirokchilarning erkin va samimiy ishtirokini ta‘minlagan. Marosimiy raqs xalqning ritual hayotining ajralmas bo‘lagi bo‘lib, estetik zavq bilan birga marosimning sakral ahamiyatini ham ifodalagan.

An‘anaviy raqs ichida diniy va epik mazmundagi turlari alohida o‘rin tutadi. Islom an‘analari hukm surgan jamiyatda raqs ochiq diniy marosimlarning markazida bo‘lmasa-da, sufiyona zikrlar va qosidalar ba‘zan raqsiy harakatlar bilan boyitilgan. ....dafa marosimida maxsus –Sadr” raqsi, folbin tabiblarning marosimida sehrli raqs, maxsus qo‘shiqlar va raqqosalar bilan o‘tkaziladigan darveshlar tadbirida alohida raqs ijro qilingan<sup>11</sup>. Bunday diniy raqslarda jismoniy harakat ruhiy holatga erishish vositasi bo‘lib xizmat qilgan. Epik raqs esa xalq dostonlari va qahramonlik eposlari syujetlarini sahnaviy harakat orqali ifodalovchi raqs namoyishlaridir. Bu janrlar an‘anaviy raqsning kamroq tarqalgan yo‘nalishi bo‘lsa-da, xalqning estetik va ma‘naviy ehtiyojlarini qondirishga xizmat qilgan.

Mehnat raqslari esa oddiy mehnat harakatlarini raqsga aylantirishdan kelib chiqqan. Dehqonchilik va hunarmandchilik bilan shug‘ullangan xalq turmushida og‘ir mehnat jarayonlarini yengillashtirish yoki bayram qilish maqsadida raqsga xos

<sup>11</sup> Бахта И. Г. Узбекский танец «Катта уюн». Краткие сведения об узбекском танце. Т(Б). Б. 30. №247. – Ташкент, 1989. – С.8.

harakatlar paydo boʻlgan. Masalan, –Pilla” raqsi oʻzbek ayollarining tut ipak qurti boqish va pilla yigʻim-terim jarayonlarini sahnaviy harakatlar bilan ifoda etadi; unda ipak qurti uyasini silkitish, pilla yigʻish kabi harakatlar nafis raqs koʻrinishiga keltirilgan. –Paxta” raqsi ustoz-shogird hamkorligining ajoyib namunasi boʻlib, hurriyatga chiqqan paxtakor oʻzbek qizining mehnat zavqi, ruhiy goʻzalligi tarannum etildi. Mehnat raqslari oddiy ish harakatlarini estetiklashtirib, tomoshabinga mehnat goʻzalligini koʻrsatadi va mehnat raqslari shu tariqa xalqning kundalik hayotiga raqsning qanchalik singib ketganini va har bir qadamda estetik zavq olishga intilganini namoyon etadi.

Anʼanaviy raqslar mavzu va ifoda uslubiga koʻra turli janrlarga ajratiladi. Dramatik raqs janri: syujetli, voqeali mazmunni ifoda etuvchi raqslar. Lirik raqs janri: nozik hissiyotlar, muhabbat va goʻzallikni kuylovchi mayin raqslar. Lirik raqslarda harakatlar yumshoq, ohista va xayolparast boʻlib, tomoshabinda estetik zavq va xotirjamlik hissini uygʻotadi. Epik raqs janri: qahramonlik va ulugʻvorlik ruhida, keng koʻlamli obrazlarni gavdalantiruvchi raqslardir. Shuningdek, –Yalla” va –maqom” janrlarining hududiy kesimda garchi nomi oʻzgarsa-da, uslub va mazmun jihatdan aslini saqlab qolishi, qimmatli manbalar asosida aniqlandi.

Janrlarning rivojlanishini tizimli tahlil qilish anʼanaviy raqs sanʼati tizimini va uning zamonaviy raqs shakllaridagi modifikatsiyasini tushunishga imkon beradi. Janrlar raqsning badiiy qirralarini tahlil qilish uchun shartli kategoriya boʻlib, har bir raqs oʻz mazmun-mohiyatiga koʻra turli janr ranglarini kasb etishi ilmiy oʻrganildi.

Tadqiqotning ikkinchi bobi **“XX asrning ikkinchi yarmida oʻzbek xalq raqsining rivojlanishi va oʻziga xos xususiyatlari”** deb nomlangan boʻlib bobda XX asrning 20-yillari oʻzbek sanʼati, xususan, raqs sanʼatida jadal rivojlanish jarayonlari boshlanganligi, xalq orasida yurib, ekspeditsiyalar uyushtirish, raqs harakatlarini oʻrganish, ularni turlarga boʻlish, nomlash va bir tizimga solish ishlari, bu kabi izlanishlar bilan oʻsha davrning koʻzga koʻringan ijrochilari Yusufjon qiziq Shakarjonov, Usta Olim Komilov, Tamaraxonim, Mukarrama Turgʻunboyeva, Gavhar Rahimova, Isoxor Oqilov singari fidoyi sanʼatkorlar milliy ijrochilik maktabini yaratganligi va ularning raqslaridagi oʻziga xosliklar borasida tahliliy fikrlar keltirilgan. Xususan, ustoz sanʼatkorlar milliy raqs sanʼatini koʻp asrlardan buyon meros boʻlib kelayotgan anʼana va qadriyatlar asosida boyitgan boʻlib, bu, ayniqsa, yakka va ommaviy raqsning oʻziga xos xususiyatlarida yaqqol koʻzga tashlanadi.

Bobning birinchi paragrafi **“Xalq raqsi ijrochilari ijodiy va pedagogik faoliyatining oʻziga xos tamoyillari va xususiyatlari”** deb nomlanib, oʻzbek xalq raqsining 1950–2000-yillardagi taraqqiyot jarayonlarini yoritadi. Bu davrda milliy raqs sanʼati professional sahna sanʼatiga aylangan, mashhur ijrochilar ijodi milliy xoreografiya tarixida burilish yasagan, ansambllar faoliyatida olib borilgan izlanishlar esa milliy raqsni xalqaro miqyosga olib chiqqan.

XX asr ikkinchi yarmidagi oʻzbek xalq raqsi ustalari ijodiy va pedagogik faoliyatining chuqur tahlili shuni koʻrsatadiki, ular milliy raqs sanʼatini nafaqat yuqori badiiy darajaga koʻtardilar, balki uning kelajak avlodlarga yetib borishini taʼminladilar.

XX asrning ikkinchi yarmi O'zbekiston xalq raqsi taraqqiyotida yangi bosqich bo'ldi. Bu davrda san'atning barcha sohalari qatori xoreografiya ham davlat siyosati darajasida qo'llab-quvvatlandi. Respublika miqyosida raqs ansambllari, o'quv yurtlari, teatr va konsert tashkilotlari faoliyat ko'rsatdi. Shu davrda ijrochilarning ijodiy va pedagogik faoliyatida o'ziga xos tamoyillar shakllandi. Harakatlar aniqligi, musiqaga uyg'unligi, obrazlilik va dramaturgik izchillik asosiy talablardan biri bo'ldi. Ijodiy tamoyillarning yana bir muhim jihati — folklor materialining chuqur o'rganilishi va sahnaga moslashtirilishi edi. Mashhur ustozlar ijodida an'ana va yangilik uyg'unlashdi. Ularning repertuarida milliy raqslarning asl xususiyatlarini saqlab qolgan holda zamonaviy kompozitsion shakllar, dramatik sahna talqinlari paydo bo'ldi.

Yusufjon qiziq Shakarjonov o'zbek xoreografiyasi rivojiga ulkan hissa qo'shgan. U katta shakldagi (ommaviy raqs) hamda „xona bazm“ shaklidagi raqslar ni usullarini bizgacha etib kelishiga xissa qo'shdi. Xalq raqsi merosi negizida yangi o'zbek xoreografiyasini yaratishni ezgu niyati qilgan Usta Olimga sadoqatli shogirdi Tamaraxonim hamroh bo'ldi. Ijodiy hamkorlik tufayli xalq orasida yashab kelgan an'anaviy raqslar birin-ketin tiklana boshladi. Usta Olim shogirdlariga shunchaki jo'rnavozlikni emas, balki ijodkorlik, baletmeysterlik xususiyatlarini ham o'rgatdi. Usul va raqs boyligini avaylab saqlash bilangina cheklanmay, uni tartibga solish, boyitishga ham ko'p kuch sarf qildi.

Usta Olim Komilov bilan Tamaraxonim ijodi Mukarrama Turg'unboyeva faoliyatiga bevosita ta'sir ko'rsatgan va ijodini boshlab bergan omillardandir. Hamkorlikda ilk ommaviy raqslarni yaratadi. Tamaraxonim ijodidagi erkaklarning maydonlarda ijro etilgan „Katta o'yin“, „Qarinavo“ kabi xalq raqslari, ayollarning ichki kechinmalarini aks ettiruvchi „Dilxiroj“ raqslarini o'z talqinida boyitdi<sup>12</sup>. Usta Olim Komilov bilan Tamaraxonim hamkorlikda „Gul o'yin“ „Sadr“ raqslarini yaratdi, ular faqat doyra jo'rligida ijro etiladi. Usta Olim Komilovning M.Turg'unboyeva bilan hamkorligi ham samarali kechdi.

M.Turg'unboyeva bilim yurti dasturiga „Doyra darsi“ mashg'ulotini joriy etishda raqs harakatlarni nomlarini va raqs harakatlarni boyitgan pedagoglardan biridir. Bu mashg'ulot orqali o'quvchilarga milliy raqs ritmlari va doyrani chalish hamda raqs harakatlarini uyg'un bajarish usullari o'rgatilgan.

Xalq raqslari asosida yaratilgan ansambllarning repertuaridagi raqslarni tahlil etish jarayonida „Pilla“, „Paxta“, „Andijon samosi“ xalqchil raqslar ekani hamda qadimiy xalq raqslari asosida yaratilgan „Bayot“, „Dilxiroj“, „Mavrigi“, „Rohat“, „Zang“ xalq sahnaviy raqslari ekani ma'lum bo'ldi.

Pedagogik faoliyatda esa raqsni o'qitishning yangi tizimi shakllandi. O'zbekiston Davlat konservatoriyasi, Toshkent Davlat madaniyat instituti, san'at kollejlari va maxsus raqs maktablarida xalq raqsi bo'yicha maxsus dasturlar ishlab chiqildi. Bu dasturlar nafaqat texnik ko'nikmalarni, balki etnografik bilimlarni ham o'z ichiga oldi. Natijada, raqs ijrochiligi va uni o'rgatish bir butun tizim sifatida shakllandi. Tamaraxonim ijodida milliy va jahon raqs unsurlarining uyg'unligi ilmiy asosda tahlil qilinadi; Mukarrama Turg'unboyeva tomonidan yaratilgan „Fanovar“,

<sup>12</sup> Avdeyeva L. O'zbekiston raqs san'ati. – Toshkent: O'zSSR Davlat badiiy adabiyot nashriyoti, 1960. – B. 53.

–Pilla”, –Bahor valsi” kabi raqslarning sahna qonuniyatlariga moslashtirilishi isbotlanadi; Qunduz Mirkarimovanning klassik balet texnikasini milliy plastika bilan sintez qilishi dalillar bilan tasdiqlanadi. Ularning pedagogik faoliyatida ustoz-shogird anʼanalari, nazariy-metodik tajribasi milliy raqs maktabining shakllanishida hal qiluvchi oʻrin tutgani ilmiy jihatdan asoslanadi.

Bobning ikkinchi paragrafi **“Xalq raqs ansambllari faoliyatidagi izlanishlar”** deb nomlanib –Bahor” ansambli repertuaridagi 200 dan ortiq raqs yaratilgani, –Shodlik” ansambli turli hududiy uslublar va folklor asosida sahnaga olib chiqqani, –Izgi” ansamblining Xorazm raqs maktabini xalqaro miqyosda targʻib qilgani daliliy manbalar bilan oʻrganiladi. Ansambllar faoliyatida milliy raqs sanʼati professional sahnaga moslashtirilgani, yangi shakllar yaratilgani va xalqaro eʼtirof qozongani ilmiy tahlil qilindi.

Ansambllar faoliyatidagi izlanishlar va erishilgan yutuqlar xalq raqsi hamda sahnaviy raqslarning oʻzaro uygʻunlashuvi va bir-biriga taʼsiri natijasida shakllanadi. Raqs sanʼati ustalarining mehnati va izchil saʼy-harakatlari, ular tashkil etgan ansambllar ijodiy taraqqiyotining asosiy omili boʻlib xizmat qiladi.

20-asr ikkinchi yarmidagi ijodiy izlanishlar oʻzbek xalq raqsi ansambllari faoliyatida ulkan meros qoldirdi. Bu meros milliy madaniyatimizning ajralmas qismi boʻlib, hozirgi zamon madaniy hayotida ham yashab kelmoqda. Tadqiqot davomida keltirilgan dalillar shuni koʻrsatadiki, oʻzbek xalq raqs ansambllari ijodiy faoliyati – bu milliy anʼana va zamonaviy sahna sanʼati sintezining yorqin namunasi boʻlib, u nafaqat oʻz davrida, balki keyingi avlodlar uchun ham ilhom manbai boʻlib xizmat qilmoqda.

1920-yillardan 1991-yilgacha boʻlgan davrda Oʻzbekiston xalq raqs ansambllari bosib oʻtgan yoʻl – milliy raqs sanʼatining professional asosda shakllanish va rivojlanish tarixidir. Bu davr mobaynida ijodiy izlanishlar, sahna talqinlari va tashkilotchilik tajribasi toʻplanib, oʻzbek raqsiga xos maktab yaratildi. Birinchi ansambllar (1930-yillar) xalq raqsini sahnaga olib chiqib, mumtoz va xalq ogʻzaki anʼanalarini uygʻunlashtirgan boʻlsa, 1950–60-yillarda –Bahor” kabi jamoalar uni yangi yuksaklikka koʻtardi. Keyingi yillarda mintaqaviy ansambllar va koʻplab havaskor jamoalar paydo boʻlib, xalq raqsi yurtimiz madaniy hayotining ajralmas qismiga aylandi. Etakchi raqqosalar va xoreograflarning fidoyiligi tufayli ansambllar repertuari doimiy ravishda boyidi, yangi raqs janrlari yaratildi hamda milliy raqsning xalqaro nufuzi oshdi.

Shuningdek, bu davrda raqs ansambllarining metodik qoʻllanmalari, dars ishlanmalari yaratilgan boʻlib, ular bugungi kunda ham oʻquv jarayonida foydalanilmoqda. Har bir ansamblning badiiy rahbari oʻz maktabini yaratdi, yosh ijrochilarni tayyorlashda ustoz-shogird anʼanasi davom etdi. Har bir viloyatda milliy raqs guruhleri shakllandi, maxsus maktablar va bilim yurtlari orqali kadrlar tayyorlash tizimi yoʻlga qoʻyildi.

Tadqiqotning **uchinchi bobi Mustaqillik davrida oʻzbek xalq raqsining rivojlanish tendensiyalari** deb nomlangan boʻlib bobda mustaqillik yillarida milliy raqs sanʼati yangi bosqichga koʻtarildi. Davlat siyosati doyrasida milliy qadriyatlar tiklandi, folklor ekspeditsiyalari tashkil etildi, qadimiy raqslar qayta sahnalashtirildi, hududiy maktablar zamonaviy talqinlarda namoyon boʻldi. Mustaqillik davrida milliy



raqs an'anaviy ildizlarga qaytib, zamonaviy shakllar bilan uyg'unlashgani, hududiy maktablarning repertuari kengaygani va xalqaro e'tirofga sazovor bo'lgani ilmiy asosda tasdiqlandi.

Mustaqillik davrida o'zbek xalq raqsining rivojlanish yo'nalishlari, hududiy maktablarning zamonaviy talqinlari hamda yangi shakllar bo'yicha izlanishlar tahlil qilindi. Xalq raqsi nafaqat an'anaviy ko'rinishda saqlanib qolmoqda, balki yangi dramaturgik yechimlar, sahna texnologiyalari va ijodiy uslublar bilan boyib bormoqda. Bu jarayon milliy o'zlikni mustahkamlash va o'zbek madaniyatini dunyo miqyosida targ'ib qilishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Bobning birinchi paragrafi **O'zbek xalq raqsi an'analari zamonaviy talqinlari (Farg'ona, Buxoro, Xorazm)** deb nomlanib, farg'ona maktabiga xos lirizm va nozik plastika, Buxoro maktabining tantanavorlik va dramatik ifodasi, Xorazmning jo'shqin temperamentini saqlab qolgan holda zamonaviy shakllar yaratildi.

O'zbek xalq raqsining asosiy yo'nalishlari Farg'ona, Buxoro hamda Xorazm raqs maktablariga ajratilgan. Har bir maktab ma'lum bir hudud, ya'ni viloyatlarni o'z ichiga oladi. Viloyatlar geografik joylashuvi, iqlimi, tarixiy va etnografik kelib chiqishi, turmush tarzining uyg'unlashuviga qarab maktablarga bo'lingan. Har bir maktabga xos qo'l va oyoq holatlari o'sha hududning etnik kelib chiqishi, hayot kechirishi va mashg'ulotlari bilan bog'liq. Bu raqs harakatlarini san'atshunos olim R.Karimova bosqichma-bosqich tizimlashtirgan.

Farg'ona raqs maktabida har bir holat bo'yicha bajariladigan raqs harakatlari quyidagilarga ajratildi: *1-holatda*: Keng dala, gul ochilishi, ilon, xipcha bel, suzish, zulfi zanjir, soch yozish, tong, qanot kabi raqs harakatlari; *2-holatda*: Qaldirg'och, mayin sabo, g'uncha, qudrat namoyishi kabi raqs harakatlari; *3-holatda*: Novda egilishi, charxpalak kabi raqs harakatlari; *4-holatda*: Shoxcha, uzum uzish kabi raqs harakatlari; *5-holatda*: Yuz o'girish kabi raqs harakatlari; *6-holatda*: Gul bargi, qo'lband, gul o'yin, mushak, qo'ldasta o'yin, paxta ochilishi, soch silash, suv mavji, yirik to'lqin kabi raqs harakatlari; *7-holatda*: yelka qoqish, titratma, sildirma kabi "muqom" harakatlari bajarilishi tahlilga olindi.

Farg'ona raqs maktabiga xos harakatlar o'simlik dunyosiga, hayvonlarga, qushlarga va tabiat hodisalariga taqlid qilishga asoslanib tasniflandi.

***o'simlik dunyosiga stilizatsiyalangan raqs harakatlari***: gulbargi, novda egilishi, gul o'yin, shoxcha, gul ochilishi, paxta ochilishi, g'uncha, gul to'kilishi;

***qushlarga taqlid qiluvchi raqs harakatlari***: qaldirg'och, g'oz suzish;

***tabiat va tabiat hodisalariga taqlid qiluvchi raqs harakatlari***: yarim oy, yirik to'lqin, suv mavji, tong, suzish, mayin sabo, dovul, osmon, quyosh, suv o'yin;

***mehnat raqs harakatlari***: paxta ochilishi, ro'mol ilish, yeng xilpillatish, yeng qoqish, o'sma, chevar, uzum uzish, soch yozish;

***ritual raqs harakati***: sadr;

***hayvonot dunyosiga taqlid qiluvchi raqs harakati***: ilon

Farg'ona raqs maktabida yana shunday raqs harakatlari mavjudki, unda qahramon insonning o'zi. Shuningdek, inson his-tuyg'ulari va turmush tarziga taqlid qilingan raqs harakatlari ham borligi isbotlandi.

Fargona raqs maktabi tizimlashtirilib, toliq maktab holatiga keltirilgach, taxminan 290 usulga ega ~~K~~atta oyin” raqsi milliy raqsning asosiy alifbosi sifatida organildi. Garchi ~~K~~atta oyin” 2 qismli bolsa-da, Fargona raqs maktabi asosida ~~D~~oyra dars”<sup>13</sup> oquv mashguloti sifatida 5 qismga ajratib ozlashtiriladi.

~~D~~oyra dars” mashgulotining barcha qismlaridagi harakatlar shakl, usul, musiqiy olchamlar bilan ozaro farqlanadi. Doyra dars mashguloti bizgacha 79 usul (takroriy usullar bilan) va 99 shaklda (takroriy shakllar bilan) yetib kelgan. Bular rez, qosh qars, gul oyin, duchoba, ufori, oksatma, yon yorga, sadr, zang singari usullardan iboratligi dalillandi.

